



MINORAYI KALON VA UNING QURILISH TARIXI

Rajabova Munisa Shukur qizi

Qarshi Davlat Universiteti o'qituvchisi

munisarajabova085@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17499543>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 31-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

Buxoro amirligi, Qoraxoniylar davri, Arslonxon, Usta Baqo, kuydirilgan g'isht, tosh,.

ABSTRACT

O'zbekiston – qadimiy sivilizatsiya va boy tarixiy merosga ega yurtlardan biridir. Bu zamin o'z bag'rida ming yillar davomida turli davrlarga oid me'moriy yodgorliklarni saqlab kelmoqda. Ana shunday nodir obidalardan biri bu — Minorayi Kalon, ya'ni "Buyuk minora" bo'lib, u Buxoro shahrining markazida, tarixiy Poi Kalon majmuasining ajralmas qismi sifatida qad rostlagan. Minoraning o'ziga xos me'moriy tuzilishi, nafis bezaklari va balandligi uni Markaziy Osiyodagi eng yirik diniy me'moriy inshootlardan biriga aylantirgan

Minorayi Kalon nafaqat diniy ahamiyatga ega bo'lgan, balki o'z davrida shahar hayotining ilmiy, madaniy va ijtimoiy jihatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan markaziy obida hisoblangan. Uning balandligi uzoq masofadan ko'rinish imkonini bergani tufayli, u shahar timsoliga aylangan. Shuningdek, bu inshoot Buxoroning musulmon olamidagi yuksak mavqeini namoyon qiluvchi ramzlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Minorayi Kalonning qurilishi 1127-yilda Hukmdor Arslonxon davrida Usta Baqo tomonidan qurilgan. Minorayi Kalonning balandligi 48 metrni tashkil qilib, dizayni aylanma zinapoyali bo'lib, yuqoriga torayib boruvchi minoradan iborat. Minora Qur'oni karimni o'qish uchun mo'ljallangan va musulmonlarni namozga chaqirish uchun ishlatilgan. Genghis Xon tomonidan Buxoro istilosi paytida minora saqlanib qolgan, chunki u juda mustahkam qurilgan edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Minorayi Kalon (Katta minora) — Buxorodagi me'moriy ansamblning markaziy obidasi bo'lib, o'zining arxitekturaviy yuksakligi va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Bu inshoot haqida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan, ularning ba'zilari quyidagilardir: Olim S. N. Yurenov 1950-yillarda Minorayi Kalon poydevorini o'rgangan o'lkashunos sifatida tanilgan. U poydevor materiallari va qurilish texnologiyasini tahlil qilgan, ammo yer osti suvlarining yuqoriligi sababli qadimiy qatlamlarga yetib bora olmagan.

Ochil Bobomurodov 1960-yilda Minorayi Kalon poydevorini ta'mirlash ishlarini olib borgan usta sifatida xalqda tanilgan. U yer osti asosini ochib, ta'mirlash ishlari orqali inshootning mustahkamligini oshirgan Olim M. Willis Britaniya Osiyo Jamiyati (Royal Asiatic Society), Britaniya muzeyi (British Museum) va York universiteti (University of York) bilan hamkorlikda Minorayi Kalonning 1920-yilgi holatini hujjatlashtirgan tadqiqotchi. U Buxoro

operatsiyasi paytida minoraning holatini suratga olib, ilmiy maqsadlar uchun hujjatlashtirgan.

Meros.uz-O'zbekistonning moddiy va madaniy merosini o'rganish va saqlashga bag'ishlangan davlat tashkiloti. U Minorayi Kalon haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etadi va uning tarixiy ahamiyatini yoritadi.

Oyina.uz-O'zbekistonning tarixiy obidalarini o'rganish va targ'ib qilishga bag'ishlangan onlayn platforma. U Minorayi Kalon haqida maqola va fotosuratlar bilan tanishtiradi.

Minorayi Kalon — Buxorodagi Po-i-Kalyan ansamblining markaziy obidasi bo'lib, o'zining arxitekturaviy yuksakligi va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu inshootda ishlatilgan qurilish materiallari, xususan g'isht, plomba yoki sement kabi moddalar, uning mustahkamligi va uzoq muddat saqlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Minorayi-Kalon qurilishida ishlatilgan qurilish materiallari sifatida ishlatiladigan g'isht: Minorayi Kalon qurilishida ishlatilgan g'ishtlar yuqori sifatli pishirilgan g'ishtlardir. Ularning o'lchamlari taxminan $28 \times 28 \times 5$ sm bo'lib, bu o'lchamlar Buxorodagi boshqa o'rta asr minoralari bilan taqqoslaganda katta hisoblanadi. Bu katta o'lchamlar inshootning mustahkamligini oshirishga xizmat qilgan.

Plomba va sement: Minorani tiklash va mustahkamlash ishlari davomida, xususan 1960-yilda Ochil Bobomurodov tomonidan amalga oshirilgan ta'mirlash ishlari davomida, poydevor va minoraning yer osti qismlarida plomba va sementdan foydalanilgan. Bu materiallar minoraning poydevorining mustahkamligini oshirish va yer osti suvlarining ta'siridan himoya qilish maqsadida qo'llanilgan.

Poydevori tosh va maxsus qir qorishmasidan terilgan. 1920-yil Frunze boshchiligidagi qizil armiya bosqini natijasida Minorai Kalon qattiq shikastlangan. Hozirgi kunda shikastlangan joylarining minorada izlari mavjud. Minorai Kalon poydevori

o'lkashunos [S. N. Yurenov](#) tomonidan 1950-yillarda ochib o'rganilgan ammo u sizot suv chiqayotganligi sababli shaharning qadimiy qatlamiga yetib bora olmagan. 1976-yilgi [Gazli zilzilasi](#)dan ham Minorai Kalon shikastlangan. Sharqshunos olim [G'ulom Karimiy](#) o'zining „Arslonxon minorasi“ nomli tarixiy kitobida mazkur inshootni Minorai Kalon emas, balki Arslonxon minorasi ekanligini isbotlab bergan. Mazkur minora [Poi Kalon](#) majmuasida joylashgan. Majmuaga [Masjidi Kalon](#), Minorai Kalon, [Miri Arab](#) va [Amir Olimxon madrasasi](#) kiradi. Tarixchi olim [Qahramon Rajabov](#) fikriga ko'ra Minorai Kalon Turkiston mintaqasidagi eng baland va yirik minoralardan biri hisoblanadi.

Natijalar: Minorayi kalon poydevori yer sathidan taxminan 9 metr chuqurlikda; minoraning pastki diametri ~ 9 metr, yuqori qismi esa ~ 6 metr bo'lib, maxsus mustahkam qorishma bilan aralashtirilgan katta hajmdagi g'ishtlardan terilgan.. Asosiy qurilish materiali sifatida devorlariga kuydirilgan g'isht ishlatilgan.



1-rasm. Minorayi Kalon va yonida "Kalon jome masjidi" tasviri.

Devorlarga g'isht orqali geometrik naqshlar, ko'fiy yozuvlar; muqarnas ostida moviy rangli sirkor (ya'ni sirlanmagan yoki yarim sirlangan plitkalar) ishlatilgan. Minorayi kalon haqida qiziqarli bir fakt ham bor Chingizxon Buxoroni bosib olganida (1220-yil), u minora go'zalligidan hayratga tushib, uni buzmaslikni buyurgan. Minoraning yonida Kalon masjidi va Mir Arab madrasasi joylashgan — ular bilan birga Poi Kalon majmuasini tashkil etadi.

Minora ichida ichki zinapoyalar yuqoriga ko'tarilish uchun 104 ta aylanma yoki spiral zinapoya bor. Butun minora bo'ylab yuqori sifatli kuydirilgan (kuygan) g'ishtlardan foydalanilgan. Bu g'ishtlar issiqlikda pishirilgani sababli uzoq muddatgacha saqlanib qolgan. Dekorativ sirlar: Sirlangan keramikadan foydalanilganligi aniqlangan — ayniqsa minoraning yuqori halqalarida moviy rangli sirli bezaklar saqlanib qolgan. Zinapoya pishiq g'ishtdan qurilgan minora devori ichida joylashgan. Bu qurilish usuli minoraning mustahkamligini ta'minlagan.

Tor yo'lakning aylanishi minoraning vertikal balandligini foydalanuvchi uchun qulaylashtiradi — balandlikni osonroq bosib o'tish uchun. Zinapoya ichida devor bezaklari, g'isht bilan shakllantirilgan naqshlar ko'zga tashlanadi, bu me'moriy go'zallikni oshiradi.



2- rasm. Minoraning ichida spiral (girift) shaklida zinapoya taxminan 104 yoki 105 pog'onadan iborat.

Muhokama. Minorayi kalonni qurilishida materiallar tanlovi va chidamliligiga katta e'tibor berilgan. Kuydirilgan g'isht minoraning asosan asosiy tuzilishi bo'lganligi, yuqori temperaturada qayta ishlanganligi sababli, bu material ob-havo sharoitlariga, sovuqqa, issiqqa, yog'ingarchilikka yaxshi chidaydi. Sirtga bezak naqshlarining shaklli g'isht orqali amalga oshirilgani dekorativ aspektdan tashqari, devor yuzasining mustahkamligini oshiradi (yuzni yuvish, shamollar ta'siri).

Poydevor chuqurligi minoraning barqarorligi uchun muhim — yer sathidan 9 m chuqurlikda poydevor qurilishi asosan yer silkinishi, tuproqdagi erkin harakatlar (settlement) bilan bog'liq buzilishlarni kamaytiradi.

Tarixiy va bebaho yodgorlik hisoblanmish Minorayi Kalonning bezak va estetik me'yorlari ko'fiy yozuvlar va geometrik naqshlar musulmon arxitekturasining o'sha davrdagi estetik tamoyillariga to'liq mos keladi; shuningdek bezaklar minoraning vizual identifikatoriga aylanib, turistlar va sayyohlarning diqqatini tortadi.

XVIII-XX asrlarda minorada tiklash ishlari bo'lgan; ta'mirlash jarayonida original materiallarning ba'zilar almashtirilgan yoki bezak plitkalari yo'qolgan. Muqarnas ostidagi moviy halqalar kabi elementlar uning bezak qismlarini qayta tiklashda muammo tug'diradi.

Minorayi Kalonning qurilish jarayonida me'morlar – 1-2 nafar bosh me'mor (masalan, Bako ismli ustaning nomi tilga olinadi). Ustalar – Qurilish g'ishtlari, bezaklar, naqshlar ustida ishlagan g'isht teruvchilar, naqqoshlar, ganchkorlar – 50-100 nafarga yetgan deb taxmin qilinadi. Oddiy ishchilar (hammollar, suv tashuvchilar, qum aralashmachilar) – 100 nafardan ortiq bo'lishi mumkin. Muhandislar yoki mas'ul shaxslar – Qurilishning xavfsizligini nazorat qilgan shaxslar. Bunday yirik va baland inshoot qurilishi uchun o'sha davr texnologiyasi va sharoitlarini hisobga olsak, kamida 200-300 nafar inson bevosita va bilvosita ishtirok etgan bo'lishi ehtimol.

Minorayi Kalon tarix davomida bir necha marta ta'mirlangan, xususan:

-16-asrda Shayboniylar davrida.

- 20-asr boshlarida va Sovet davrida restavratsiya ishlari olib borilgan.

- Mustaqillikdan so'ng (1990-yillar) ham ta'mirlab, UNESCO e'tiboriga tushgan.

Minora Kalon Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob namunasi sifatida dunyoda tan olingan. Minorayi Kalon — hozirda Buxorodagi eng mashhur turistik obidalardan biri. Har yili minglab mahalliy va xorijiy sayyohlar kelib uni tomosha qiladi.

Xulosa. Minorayi Kalon islomiy me'morchilik san'atining yuksak namunasi bo'lib, azon minorasi, shahar timsoli va madaniy meros ob'ekti sifatida xizmat qilgan. Tarixiy rivoyatlarga ko'ra, hatto Chingizxon ham uning go'zalligidan hayratlanib, uni vayron qilmagan. Har yili Buxoro shahriga Minorayi Kalona va uni atrofidagi yodgorliklarni ko'rish uchun tashrif buyurgan chet el sayyohlari soni taxminan 42 589 nafar tashkil etadi. Minorai Kalon qadimiy inshootlar orasida alohida o'rin tutadi. Shakllarning o'zaro monandligi va mutanosibligi, handasaviy uyg'unlik, ajoyib ko'rk va mahobatlilik Minorai Kalonga chinakam go'zallik bag'ishlaydi. Minora 900 yildan buyon o'zining mustahkamligi bilan ajralib turadi. Minorai Kalon belbo'g'ida 20 dan ortiq naqshinkor xalqalar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat:

1. Meros.uz. Minorayi Kalon haqida ma'lumot. <https://www.meros.uz/uz/object/minorai-kalon> (2025-yil)
2. Structurae.net. Kalon Minaret. <https://structurae.net/en/structures/kalon-minaret>
3. Milliycha.uz. Minorayi Kalon haqida maqola. <https://milliycha.uz/minorai-kalon>
4. Humodoc.com. Markaziy Osiyo minoralari bo'yicha yo'lko'rsatkich. <https://mag.humodoc.com>
5. Arxitektura va madaniy meros jurnalidan maqolalar (an'anaviy bosma nashrlar, 2020–2023-yillar).
6. Jo'rayev, A. (2018). O'rta asr O'zbek arxitekturasi yodgorliklari. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
7. Азизхўжаев А Масъул муҳаррир. Бухоро шарқ дурдонаси. Тошкент: Шарқ нашриёти, 1997
8. Бобожонов Ш. Шариф шаҳар ёдгорликлари (Бухоро тарихий обидаларига саёҳат). Бухоро: Бухоро нашриёти, 2017